



## LOYIHA TEXNOLOGIYALARINING MADANIYATLARARO KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

*Muxamedjanova S,*

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, (PhD) dotsenti*

*Ostonova N.*

*Turkiston Yangi Innovatsiyalar universiteti magistri*

**Tayanch soʻzlar:** kommunikativ kompetensiya, innovatsiya, topshiriqlar, mashgʻulot, xorijiy til, oʻqituvchi, talaba, zamonaviy texnologiyalar.

**Ключевые слова:** коммуникативная компетентность, инновации, задания, обучение, иностранный язык, преподаватель, студент, современные технологии.

**Key words:** communication competence, innovation, assignment, teaching, foreign language, teacher, student, modern technology.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy tilni bilish muhim ahamiyat kasb etayotganligi bois chet tili oʻqitish tizimini isloh etish, dars jarayonlarida zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda oʻqitishning ilgʻor usullarini qoʻllash taʼlim tizimida dolzarb masalalardan biriga aylandi. Taʼlim jarayonida qoʻllanilayotgan koʻplab innovatsion texnologiyalar va interfaol uslublar talabalarning chet tilida nutqini oʻstirish, mantiqiy, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini takomillashtirish, shuningdek, taʼlim tizimida uzviylikni taʼminlashga qaratilgan.

Taʼlimning barcha turlarida chet tilini oʻrganish maqsadga muvofiq boʻlib, chet tilini oʻqitishda jahon tajribasida sinovdan oʻtgan innovatsion taʼlim texnologiyalarini qoʻllash samarali natijalar berishi ayon. Taʼlim sifati va samaradorligini oshirish, oʻrganilgan bilim, koʻnikmalarni mustaqil ravishda amalda qoʻllashga oʻrgatish bugungi kun pedagoglari zimmasida turgan eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Oʻqituvchilarning innovatsion faoliyatini shakllantirish, pedagogik mahoratini takomillashtirish, ularni psixologiya, metodika sohasidagi eng yangi, zamonaviy bilimlardan xabardor qilib borish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boʻyicha bilimlarini yanada oshirish



oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'qituvchilarining o'zaro hamkorlikda ish olib borishlarini talab etmoqda [3]. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Loyiha texnologiyalarining madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi roli hozirgi zamon chet tillar o'qitish metodikasida ustuvor yo'nalish sifatida tan olinayotgan kommunikativ yondashuvning quyidagi konseptual tamoyillari orqali amalga oshiriladi [4]:

1. Mashg'ulotni rejalashtirishda nutq faoliyatining barcha turlarini muayyan bir nutq mavzusi bo'yicha tuziladigan, o'zaro fikr almashuviga asoslangan, talabalarning nutq ehtiyojlariga va nutq vaziyatiga mos keladigan kommunikativ topshiriqlar orqali tashkil qilish;

2. Kommunikativ topshiriqlarni tushuntirish va o'zlashtirish jarayonida talaffuz, leksik, grammatik, so'zlashuv, tinglab tushunish, o'qib tushunish ko'nikma va malakalarini kompleks shakllantirish va takomillashtirish;

3. Har bir kommunikativ topshiriqni tushuntirish, mustahkamlash jarayonida ko'p martalik takror tamoyiliga rioya qilish;

4. Topshiriqlarni tushuntirish, mustahkamlash jarayonida har bir so'z va jumlaning tarjimasiz tushunilishiga yordam beradigan, talabalarning barcha sezgilariga faol ta'sir qiluvchi audio-vizual, ekstralingvistik, emotsional ta'sir vositalaridan kompleks foydalanish;

5. Kommunikativ topshiriqni bajarishda o'zaro hamkorlikni ta'minlaydigan interfaol usullarda: juft va guruh bo'lib ishlash kabi yangi pedagogik texnologiyalar asosida funktsionallikni ta'minlab tashkil qilish;

6. Juft va guruh bo'lib ishlab kommunikativ topshiriqni mustahkamlashda har bir talabaning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish;

7. Mavzu bo'yicha muloqot topshirig'ini tayyorlashda uning kommunikativ vaziyatlarga bog'liqligini, talabalarning fikr almashuv ehtiyojlariga mosligini, qiziqarliligini, yangiligini ta'minlash;

8. O'rganilgan kommunikativ topshiriqlarni dars jarayonida, darsdan tashqari vaqtlarda o'quv laboratoriyasida va uyga vazifani bajarish kabi shakllarda uch bora mustahkamlanishiga erishish;

9. O'rganiladigan kommunikativ topshiriqning mazmun-ma'nosini ongli o'zlashtirilishiga erishish;



10. Muloqot jarayonida talabalarning intellektual, axloqiy, emotsional rivojlanishini ta'minlash;

11. Muloqot jarayonida kommunikativ topshiriqni har bir talaba tomonidan qanday o'zlashtirganlik darajasini hisobga olib borish;

12. Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini, ya'ni muloqotga kirisha olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish.

Adabiyotlar tahlili. Xorijiy tilda juft bo'lib ishlashni tashkil qilishning asosiy maqsadi o'rgailadigan nutq materiali bo'yicha o'zaro fikr almashuvga, muloqotga o'rgatishdir. Xorijiy tilda muloqotni o'rgatish kommunikativ topshiriqlar orqali tashkil qilinadi. Kommunikativ topshiriq - bu muayyan bir mavzu asosida tuziladigan, juft bo'lib ishlab, ko'p martalik takror asosida o'zlashtirishga mo'ljallangan, birinchi talabning savoliga- ikkinchi talaba tomonidan talaffuz taqlidiga, audio-vizual, ekstralingvistik va emotsional ta'sir vositalariga tayanib javob berishga asoslangan kichik mikrodiologdir.

Kommunikativ topshiriqlar orqali talabalarning o'quv faoliyatini tashkil qilish va boshqarish an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli ularoq o'quv materialining talaffuzini, yangi leksikasini, grammatik materialini, eshitib va o'qib tushuniladigan matnlarini, fikrni yozma bayon qilish usullarini muloqot jarayonida kompleks o'zlashtirishni ko'zda tutiladi [1]. Ya'ni, talaba kommunikativ topshiriqni bajarishni mashq qilayotgan jarayonidayoq undagi leksik birliklarning talaffuzini, anglatgan ma'nosini, grammatik-sintaktik tuzilishini, jumla tuzilishidagi o'ziga xosliklarni egallab oladi.

Shunday qilib, kommunikativ yondashuv an'anaviy o'qitish metodikasida shakllangan o'quv materialini tushuntirish, mustahkamlash, nazorat va baholash kabi bir qolipga solingan usullardan farqli o'laroq, ta'limni talabalarni muloqotga o'rgatishdan boshlaydi. Fonetik, leksik, grammatik qoidalarning eng oxirida o'zlashtirilgan nutq materialining mustahkamlovchi vositasi vazifasini bajaradi.

Tahlillar va natijalar. Nutq vaziyatlariga asoslangan kommunikativ topshiriqlar orqali muloqotga o'rgatish quyidagi bosqichlarda tashkil qilinadi [5]:

1. Kommunikativ topshiriqni bajarishga tayyorlash. Bu bosqichda o'qituvchi tomonidan muloqot mavzusi bo'yicha leksik birliklar, jumlar, audio-vizual vositalar tayyorlanadi, leksik birliklarni o'z ichiga olgan qiziqarli nutq vaziyatlari, uni bajaradigan talabalar juftliklari yoki guruhleri belgilanadi.

2. Kommunikativ topshiriqni bajarish yo'llarini tushuntirish va ko'rsatish bosqichi. O'qituvchi talabalar juftligiga yoki guruhiga mo'ljallangan kommunikativ topshiriqni ko'rgazmali qurollar, ekstralingvistik vositalar



yordamida bajarish yo'llarini ko'rsatadi. Tushuntirish va ko'rsatish bajarilayotgan, eshitalayotgan nutqiy harakatni taqlidiy o'zlashtirishga, eshitalayotgan jumladagi har bir leksik birlikni, umumiy jumla anglatgan mazmuni, ohangni talabalar tomonidan ongli, tarjimasiz tushunishga yo'naltiriladi. Shu taqdimotning o'zidayoq talabalar gap nima haqida ketayotganligini, qanday nutq materialini o'zlashtirish lozimligini idrok qilib oladilar.

3. Eshitilgan kommunikativ topshiriqni ko'p martalik takror asosida taqlid qilib mustahkamlash bosqichi. Bu bosqichda talabalar juftliklarga, guruhlariga bo'linib nutq materialini avval tasdiq, keyin so'roq, inkor formalarda, turli shaxslar va zamonlarda ishlatib, o'z sheriklarining fikrini rad qilishga, qo'shilishga, savolga - savol bilan javob berishga o'rganadilar. Muloqot jarayonida ko'rgazmali va ekstralingvistik vositalardan, o'yinlardan, hazil va yumorlardan keng foydalaniladi. Bu jarayonida talabalarning talaffuziga, har xil formadagi jummalarni gapirishdagi ohangiga, gapirishda foydalangan ekstralingvistik vositalariga e'tibor qaratiladi. Bu bosqichda kommunikativ topshiriqni guruhlararo bajartirishni ham tashkil qilish mumkin.

Mustahkamlash jarayonida muloqot ko'nikmalari shakllantiruvchi kommunikativ topshiriqlar asosan to'rt talabga javob berishi lozim:

- Nutqiy vazifaning aniqligi;
- Kommunikativ topshiriqning ma'lum nutq vaziyatiga bog'liqligi;
- Topshiriqning bajarilishi fikr almashuvga va nutqiy harakatni o'zlashtirishga yo'naltirilganligi;
- Bu jarayonda turli tayanch vositalaridan foydalanishning zarurligi.

Muloqot ko'nikmalarini shakllantiruvchi bunday mashqlarning aynan mana shu talablarga javob bera olishi - ularning an'anaviy o'qitish jarayonida bajariladigan mashqlardan farqi hisoblanadi.

4. Kommunikativ topshiriqdan erkin nutq vaziyatida foydalanish bosqichi. Bu bosqich o'sha mashg'ulotning oxirida yoki navbatdagi mashg'ulotda talabalar juftliklarining, guruhlarining o'zaro fikr almashuvini tekshirish va baholash sifatida tashkil qilinishi ham mumkin.

Ma'lumki, barcha talabalarning o'zlashtirishini har bir darsda nazorat qilish va baholash, talabalar juftliklarini, guruhlarini o'quv ma'suliyatini yanada oshishiga, juftliklarda, guruh ichida yaxshi baho olishdagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Yakka talabani emas, guruhning o'zlashtirishini baholash bunday ma'suliyatni yanada oshiradi. Loyiha texnologiyalari asosida mashg'ulotlarni o'tkazish o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni, shuningdek, quyidagilarga e'tibor berish kerakligini talab qiladi [6]:

- Qaysi mavzular bo'yicha loyiha ishlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi.
- Mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun talabalar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.
- Mashg'ulotda talabalarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Xulosalar. Loyiha texnologiyalari har bir o'qituvchi tomonidan barcha talabalar o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishini ta'minlaydi. Bunda har bir talaba o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi. To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi, talabalarning asabiy zo'riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi. Bu usul ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir talabaning faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi, talabalar o'qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi. Talabalar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba-sinovlar o'tkazish asosida o'zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi [2]. Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlashadi. O'quv topshiriqlari alohida bir talabaga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. Mikroguruhlarning har bir a'zosi topshiriqni bajarishda o'z hissasini qo'shishga harakat qiladi. Bu holat talabalarda jamoa tuyg'usini shakllantiradi va ularning tashabbuskorligini orttiradi. Ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Hozirgi paytda darsning xilma-xil noan'anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar talabaning ijodiy qobiliyatini o'stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to'la qabul qila olish ko'nikma va malakalarini tarkib toptiradi. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash talabalarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg'otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o'zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o'qituvchi mahoratli bo'lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to'g'ri rejalashtirishi, mashg'ulot davomida barcha talabalarni faol ishlashlariga erishmog'i lozim.

**Adabiyotlar:**

1. Гез Н.И. Формирование коммуникативной компетенции как объект зарубежных методических исследований//Иностранные языки в школе. №3. – М.: 1985. 17-24 с.
2. Гребенёк Л.Д. Новейшие методы преподавания иностранных языков в неязыковом вузе. Минск, 2000. 187-188 с.
3. Gulyamova M.X. Ingliz tilini o'qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv. Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – T.: 2019. 65-95 b.
4. Ko'chiboev A., Iskandarov E. "Xorijiy tillarda muloqotga o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalar". Samarqand, 2011.
5. MS Djamolitdinovna The methods of communicative culture in the process of teaching the English Language on the example of technical direction students at non-philological universities. Eurasian Research Bulletin 4, 76-79 pp.
6. Ziyomuxammedov B, Abdullaeva Sh. "Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot" uslubiy qo'llanma "Abu Ali Ibn Sino" nashriyoti. T.: 2001-yil.

**РЕЗЮМЕ**

Ushbu maqolada hozirgi kunda chet tili o'qitishning, chet tili darslarini tashkil etishning eng samarali usuli sifatida loyihalar texnologiyalarini tadqiq qilish, talabalarda madaniyatlararo kommunikatsiyani shakllantirish asosida o'qitish jarayonini tashkil qilish metodikasi haqida yoritilgan.

**РЕЗЮМЕ**

В данной статье описана методика организации учебного процесса на основе исследования проектных технологий. Формирования занятий межкультурной коммуникации среди студентов как наиболее эффективного способа преподавания иностранного языка.

**SUMMARY**

This article describes the methodology of organizing educational process based on the study of project technologies. Formation of intercultural communication classes among students as the most effective way of teaching a foreign language.